

JUMANIYAZOVA Moxira

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrası o'qituvchisi

OILA VA NIKOH INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHDA “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIJDON ERKINLIGINI TA’MINLASH VA DINIY SOHADAGI DAVLAT SIYOSATI KONSEPSIYASI”NING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ «КОНЦЕПЦИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СВОБОДЫ СОВЕСТИ И ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В РЕЛИГИОЗНОЙ СФЕРЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН» В УКРЕПЛЕНИИ ИНСТИТУТА СЕМЬИ И БРАКА

THE IMPORTANCE OF THE "CONCEPT OF ENSURING FREEDOM OF CONSCIENCE AND STATE POLICY IN THE RELIGIOUS SPHERE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN" IN STRENGTHENING THE FAMILY AND MARRIAGE INSTITUTION

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2025-yil 25-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasining ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, unda keltirilgan bandlar, xususan, oila va nikoh munosabatlari yo‘nalishida aks etgan me‘yoriy xulosalar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Oila institutini mustahkamlash va nikoh muqaddas tushuncha ekanligi konsepsiyada yanada ochiqqlanganligiga e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga, bir necha tavsiyaviy xulosalar ham taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: konsepsiya, vijdon erkinligi, diniy soha, oila instituti, nikoh, oilaviy munosabatlar, milliy qadriyatlar, urf-odat, an‘analari;

Аннотация. В данной статье рассматривается значение Концепции обеспечения свободы совести и государственной политики в религиозной сфере в Республике Узбекистан,

принятой 25 февраля 2025 года. Также научно и теоретически проанализированы нормативные выводы, отраженные в представленных в них пунктах, в частности в направлении семейно-брачных отношений. В концепции делается акцент на укреплении института семьи и дополнительном разъяснении того, что брак является священным понятием. В то же время представлено и несколько рекомендаций.

Ключевые слова: концепция, свобода совести, религиозная сфера, институт семьи, брак, семейные отношения, национальные ценности, обычаи, традиции;

Annotation. This article examines the significance of the Concept of Ensuring Freedom of Conscience and State Policy in the Religious Sphere in the Republic of Uzbekistan, adopted on February 25, 2025. The normative conclusions reflected in the points presented therein, in particular in the direction of family and marital relations, are also scientifically and theoretically analyzed. The concept emphasizes strengthening the institution of the family and further clarification that marriage is a sacred concept. At the same time, several recommendations are presented.

Keywords: concept, freedom of conscience, religious sphere, institution of family, marriage, family relations, national values, customs, traditions;

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda murakkab ijtimoiy tendensiyalar rivojlanib bormoqda. Bu esa, har bir demokratik mamlakatlarning kun tartibiga jahonda kechayotgan tahlikali vaziyatlarni odilona hal etish, jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirishdek dolzarb vazifani qo‘yadi.

Yangilanib borayotgan O‘zbekistonda mustaqil demokratik tamoyillarni mustahkamlash uchun aniq dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi. Shu o‘rinda, ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash borasidagi islohotlar shular jumlasidandir. O‘zbekistonda Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” hamda 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”[1] deya belgilab qo‘yilgan. Bu boradagi jarayonlarni davom ettirish maqsadida, vijdon

erkinligi va diniy tashkilotlarni to'g'ri tashkil etish va faoliyatini odilona baholashni yangi bosqichga olib chiqish ahamiyatlidir.

ASOSIY QISM

2025-yil 25-fevralda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi" davlatning sohaga doir islohotlarining keyingi bosqichini belgilab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Konsepsiya 7 bob va 41 ta bandni o'z ichiga olib, har bir bandeda vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati borasidagi asosiy masalalarga urg'u berilgan va aniqlashtirilgan. Xujjatning "O'zbekiston Respublikasida diniy sohada davlat siyosatining maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplari" deb nomlanuvchi 3-bobining 10-bandida O'zbekiston Respublikasida diniy sohada davlat siyosati qanday asosiy prinsiplarga tayanishi keltirib o'tilgan, ular quyidagi:

- Qonuniylik;
- Vijdon erkinligi;
- Dinning davlatdan ajratilganligi;
- Tenglik;
- Erkin tanlov;
- Dinlararo muloqot va o'zaro tushunish

kabi prinsiplarni nazarda tutadi.

Albatta prinsiplarning aniq belgilanishi vijdon erkinligi va diniy sohada davlat siyosatini amalga oshirishning tayanch tamoyili hisoblanadi. Shuningdek, konsepsiyada belgilangan har bir prinsipga bandlar asosida aniq ta'rif berib o'tilganligi e'tiborlidir. Unga ko'ra,

"11.Qonuniylik prinsipiga muvofiq diniy sohadagi davlat siyosati Konstitutsiyaga va qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlarning Konstitutsiyaga va qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmasligi ta'minlanadi.

12. Vijdon erkinligi prinsipiga binoan O'zbekiston Respublikasida barcha shaxslar uchun din va e'tiqod erkinligi kafolatlanadi. Fuqarolar xohlagan dinga e'tiqod qilish, e'tiqodni o'zgartirish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqidan erkin foydalanadi. Diniy qarashlarni yoki dinga

e'tiqod qilmaslikni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning huquqlarini ularning muayyan diniy ta'limotga munosabatiga qarab cheklashga, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ustunlik berishga, ularning diniy e'tiqodi mavjud yoki mavjud emasligi bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlashga yo'l qo'yilmaydi.

13. Dinning davlatdan ajratilganligi prinsipi diniy tashkilotlar va davlat organlari o'zaro bir-birining faoliyatiga aralashmasligi, davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlatning biror-bir vazifalarini yuklamasligi, diniy tashkilotlarning davlat funksiyalarini amalga oshirishiga yo'l qo'ymasligiga oid qoidalarni nazarda tutadi. Ushbu prinsip diniy qarashlardan qat'i nazar, konstitutsiyaviy huquqiy tizim (huquq normalari va ularni qo'llash), demokratiya, dunyoviylik, erkinlik, tenglik, insonparvarlik, ijtimoiy adolat va birdamlik, inson huquqlari g'oyalariga tayanadi.

14. Tenglik prinsipiga muvofiq fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida teng bo'lib, bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Fuqarolarga biror-bir dinga e'tiqod qilishi yoki e'tiqod qilmasligidan kelib chiqib imtiyozlar berishga yoki ulardan mahrum qilishga yo'l qo'yilmaydi. Qonunlar diniy e'tiqodidan yoki biror-bir dinga e'tiqod qilmasligidan qat'i nazar, barcha fuqarolarga nisbatan bir xilda qo'llaniladi.

15. Erkin tanlov prinsipiga ko'ra, fuqaro dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod qilmaslikka, ibodatlarda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka, diniy ta'lim olishga nisbatan o'z munosabatini belgilayotganda uni u yoki bu tarzda majburlashga yo'l qo'yilmaydi.

16. Dinlararo muloqot va o'zaro tushunish prinsipi asosida turli dinlarga e'tiqod qiladigan yoki biror-bir dinga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, turli konfessiyalarga oid tashkilotlar o'zaro diniy bag'rikenglik, murosa, hurmat va o'zaro tushunish asosida muloqot o'rnatadi. Davlat turli dinlarga e'tiqod qiladigan yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, turli konfessiyalarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat, bag'rikenglik ruhi o'rnatilishini ta'minlaydi, radikallashtirishga, ekstremizmga, terrorizmga, turli dinlarga mansub aqidalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga va keskinlashtirishga, shu asosda fuqarolar totuvligini buzishga, turli konfessiyalar

ichida va boshqa konfessiyalar o'rtasida adovat qo'zg'atishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi"[3]

Qayd etish lozimki, vijdon erkinligini ta'minlash va diniy masalalarda davlat siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish – jamiyatning eng asosiy bo'g'ini hisoblangan – oila instituti faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Xususan, mamlakatimiz dunyoviy mamlakat bo'lib, shu bilan bir qatorda oila va unga oid munosabatlarni rivoji bevosita asriy qadriyatlarimiz hisoblangan – milliy-diniy qadriyatlar orqali shakllanib kelgan. Bu borada oilalarning mustahkamligi, uni tashkil etuvchi a'zolari ya'ni er va xotin munosabatlarining o'zaro mehr-muhabbat, ishonch va tenglikka asoslanganligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Konsepsiyaning "Dunyoviy davlatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlari" deb nomlanuvchi 6-bobida mamlakatning asosiy yo'nalishlaridan biri – ta'lim yo'nalishida dunyoviylikni ta'minlash bandi orqali xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun keng shart-sharoitlar yaratish hamda ularni ilmfanga faol jalb etish orqali ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish to'g'risida so'z boradi. Xususan, shu bobning nikoh institutini tartibga solish yo'nalishida, oila institutini tashkil etishda – dunyoviylik prinsipini to'g'ri qo'llash va munosabatlarda o'zaro hamjihatlikka erishish maqsad qilingan. Shuningdek qonun hujjatida uni bir necha bandlar bo'yicha asoslab berishga erishilgan.

"32. Nikoh institutini tartibga solish yo'nalishidagi dunyoviylik bu — nikoh munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda fuqarolarning huquq va erkinliklariga, fuqarolik va oila to'g'risidagi qonunchilikka tayanishdir. 33. Nikoh institutini tartibga solish yo'nalishidagi dunyoviylikni ta'minlashning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

a) nikoh institutini tartibga soluvchi huquqiy normalarning dunyoviy qadriyatlarga asoslanishi;

b) nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishini ta'minlash;

v) nikoh tuzishga doir diniy marosimning faqat nikoh qonunda belgilangan tartibda qayd etilganidan keyingina amalga oshirilishini ta'minlash;

g) ikki yoki undan ortiq xotin yoxud ikki yoki undan ortiq er bilan er-xotin bo'lib yashashni targ'ib qilishni cheklash choralari ko'rish;

d) jamiyatda shakllangan va amaldagi qonunchilikka asoslangan an'anaviy nikoh munosabatlarini, milliy qadriyatlar va udumlarni qo'llab-quvvatlash"[3].

Albatta, nikoh institutini tashkil etishda bo'lajak er va xotin munosabatlarining o'zaro mehr-muhabbat, qadriyatlarga muvofiqligiga alohida e'tibor berish lozim. Negaki, oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tib, rivojlanishidagi asosiy vositasi hisoblanadi. Konsepsiyaning alohida bandida nikoh va oila munosabatlariga doir qoidalarining kiritilganligi uning bugungi kundagi rolini anglashda muhim qadam bo'la oladi. Nikoh qonunchiligida keltirilgan me'yorlarning qadriyatlarimizni ijtimoiy maqomini belgilashda ham ma'lum bir qoidalarda nazarda tutilgan me'yorlar orqali qabul qilish, ularning kelgusi davomiyligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, 32-bandning asosiy mazmuni nikohni tuzishda dunyoviylikning ahamiyatiga bag'ishlanganligini bir qarashda g'arbona madaniyat sifatida tushunilsada, aslida bu nikohning huquqiy maqomini shakllantirish, bo'lg'usi oila vakillarining haq-huquqlarini kafolatlanishidagi bosh mezon sifatida aks ettirilgan. Shu bilan birga, 33-bandda dunyoviylik qanday mexanizmlarga tayanishi ochiqlab berilgan, unda nikoh institutining tashkil etilishi dunyoviy qadriyatlarga ko'ra amalga oshirilishi, tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab beradi hamda keyingi qismida nikoh o'zbek xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishini ta'minlashi to'g'risidagi mezon bilan yanada boyitilgan. Keyingi b) qismida nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishini ta'minlashi nazarda tutilgan bo'lib, mazkur qism O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining [2] Umumiy qoidalar bo'limida keltirilgan moddalar bilan mantiqan bog'langan holda qayd etilgan. Bandning v) qismida keltirilgan nikoh tuzishga doir diniy marosimning faqat nikoh qonunda belgilangan tartibda qayd etilganidan keyingina amalga oshirilishini ta'minlash qonunchilik tomonidan diniy soha vakillarining nikohlarni

qayd etishga doir faoliyatini shaffof olib borishiga yaqindan yordam beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda maishiy hayotimizga kiib kelayotgan turli xil yot g'oyalardan biri sifatida nikohning muqaddas tushuncha ekanligini shubha ostiga qo'yish maqsadidagi "Ikkinchi xotin", "ikkinchi er" kabi su'niy targ'ibot va qarashlarni bartaraf etish masalasi ham mazkur konsepsiyaning alohida qismida aniqlashtirib berilgan. Bu esa, oilalarning har tomonlama mustahkam bo'lishi, unda voyaga yetayotgan farzandlarning axloqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, 33-bandning "d" qismida oilaviy qadriyatlarning rivojlanishida asriy an'analarimiz va urf-odatlarimizning ahamiyatini oshirishga ham e'tibor qaratilgan. Mazkur qoidada oilalarning qadriyatlarni avlodlaridan avlodga o'tkazuvchilik funksiyasi e'tiborga olingan bo'lib, an'ana va urf-odatlarni asrab-avaylash, ommaviy madaniyat ta'siriga tushib qolmaslik kabilar nazarda tutilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi"ning qabul qilinishi nafaqat diniy sohadagi davlat siyosatini aniq belgilanishi, shuningdek, kelgusida oila institutini mustahkamlash, unda er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishda, ming yillik qadriyatlarning ahamiyatini oshirishda muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev bejizga oilaga "Ibratli oila – ibratli va adolatli jamiyat uchun asos bo'ladi" [4] deb baho berib o'tmaganlar, bu ta'rif zahirida oilaning yuksak qiymatga ega ekanligini anglashimiz mumkin. Darhaqiqat, yangilanib borayotgan O'zbekistonda oila va nikoh institutini mustahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani bajarishda konsepsiyaning ahamiyati yuqori ekani, uning keng jamoatchilik muhokamasidan kelib chiqqan holda qabul qilinishi bilan izohlanadi. Shunday ekan, uni tahlillash, maxsus kurslar tashkil etish va o'rganish, konsepsiyaga oid mulohazalarni ommaga yetkazishda muhim omillardan biridir. Ayniqsa, vijdon erkinligi va diniy sohada davlat siyosati bilan bog'liq masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, xos islohotlarni jamoat e'tiboriga xulosalangan holda taqdim etish ba'zi

tushunarsiz va dogmatik qarashlar paydo bo'lishi va ommalashishini oldini olishda anchayin samarali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон) // <https://lex.uz/docs/6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-songa ilova; 2003-y., 1-son, 8-modda; 2004-y., 1-2-son, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 14-son, 133-modda; 2008-y., 16-son, 117-modda; 2009-y., 37-son, 401-modda; 2010-y., 35-36-son, 300-modda, 37-son, 313-modda; 2011-y., 40-son, 410-modda; 51-son, 542-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 2014-y., 4-son, 45-modda; 2016-y., 39-son, 457-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; 29.08.2019-y., 03/19/558/3662-son, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son; 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son, 11.03.2020-y., 03/20/608/0278-son, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son; 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 22.10.2021-y., 03/21/723/0983-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 08.05.2023-y., 03/23/838/0257-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son);
3. "O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi" (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2025-y., 03/25/1037/0187-son) // <https://lex.uz/docs/7404923>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – 07.03.2025.